

**«O‘ZSANOATEKSPORT»
aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlari navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishining
2024 yil «8» noyabrdagi
3-sonli Qarori bilan
«TASDIQLANGAN»**

**«O‘ZSANOATEKSPORT»
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

USTAVI

(YANGI TAHRIR)

MUNDARIJA

		Bet
1- BO‘LIM.	JAMIYATNING NOMI, MANZILI, FAOLIYATINING MUDDATI.	3
2- BO‘LIM.	YURIDIK MAQOMI.	3
3- BO‘LIM.	JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI.	4
4- BO‘LIM.	JAMIYAT HUQUQLARI.	5
5- BO‘LIM.	USTAV FONDI.	6
6- BO‘LIM.	USTAV FONDINI KO‘PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI.	6
7- BO‘LIM.	JAMIYAT AKSIYALARNING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI.	7
8- BO‘LIM.	DAROMADNI (FOYDANI), DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH TARTIBI.	8
9- BO‘LIM.	ZAXIRA FONDINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI.	9
10- BO‘LIM.	AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.	9
11- BO‘LIM.	BOSHQARUV ORGANLARI.	10
12- BO‘LIM.	AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHI.	10
13- BO‘LIM.	JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI.	16
14- BO‘LIM.	JAMIYATNING IJROIYA ORGANI.	20
15- BO‘LIM.	JAMIYATNING MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH.	23
16- BO‘LIM.	FILIALLAR, VAKOLATXONALAR, SHO‘BA VA QARAM XO‘JALIK JAMIYATLARINI TUZISH VA FAOLIYATINI YURITISH TARTIBI.	24
17- BO‘LIM.	JAMIYATNING HISOBI VA HISOBOTI.	25
18- BO‘LIM.	NIZOLARNING HAL ETILISHI.	25
19- BO‘LIM.	JAMIYATNING QAYTA TASHKIL ETILISHI.	25
20- BO‘LIM.	JAMIYATNING TUGATISH TARTIBI.	25
21- BO‘LIM.	BOSHQA QOIDALAR.	26

1-BO‘LIM

JAMIYATNING NOMI, MANZILI, FAOLIYATINING MUDDATI

1.1. Quyida «Jamiyat» deb nomlanadigan «O‘ZSANOATEKSPORT» Aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining tuzilmasini optimallashtirish va faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2015 yil 31 dekabrda PQ-2463-sonli Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining 2016 yil 8 yanvardagi 5-p-sonli buyrug‘iga muvofiq tashkil etilgan.

«O‘ZSANOATEKSPORT» AJ qayta tashkil etilgan «Uzprommashimpeks» va «Markazsanoateksport» aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlari, shartnomalari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. Jamiyat o‘z faoliyatida mazkur ustavga va O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga tayanadi.

1.3. Mazkur ustav O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni (quyida «Qonun») va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan.

1.4. Jamiyatning firma nomi:

1.4.1. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

- O‘zbek tilida: «O‘ZSANOATEKSPORT» Aksiyadorlik jamiyati;
- Rus tilida: Акционерное общество «УЗСАНОАТЭКСПОРТ»;
- Ingliz tilida: Joint-Stock Company «UZSANOATEXPORT».

1.4.2. Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

- O‘zbek tilida: «O‘ZSANOATEKSPORT» AJ;
- Rus tilida: АО «УЗСАНОАТЭКСПОРТ»;
- Ingliz tilida: JSC «UZSANOATEXPORT».

1.5. Jamiyatning pochta, joylashgan va elektron manzili: O‘zbekiston Respublikasi, pochta indeksi 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 107-uy, rasmiy sayti: www.use.uz, elektron pochta: info@use.uz.

1.6. Jamiyatning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.

2- BO‘LIM

YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat yuridik shaxs deb hisoblanadi va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Ustav asosida amalga oshiradi.

2.2. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Jamiyat va uning sho‘ba yoki tobe xo‘jalik jamiyatlari orasidagi munosabatlar amaldagi qonunchilik va mazkur ustav bilan tartibga solinadi.

2.3. Jamiyat o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi va hududidan tashqaridagi banklarda hisobvaraqlariga, o‘zining firma nomi davlat tili yoki boshqa tilda to‘liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko‘rsatilgan yumaloq muhriga ega bo‘lishga haqli.

2.4. Jamiyat o‘z nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘ladi.

2.6. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar bo‘ladi.

2.7. Jamiyat Davlat va uning organlari majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi, xuddi shuningdek Davlat va uning organlari ham Jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

3- BO‘LIM

JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi daromad olish hisoblanadi.

3.2. O‘z faoliyatining maqsadiga erishish uchun Jamiyat quyidagilarni amalga oshiradi:

- tashqi savdoda vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish;
- tovarlar va xizmatlarning eksporti va importini amalga oshirish va ko‘paytirish, respublikaning eksport bazasi rivojlanishiga, tovarlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish, amalga oshiriladigan operatsiyalarning samaradorligini oshirish;
- mashinasozlik, farmatsevtika, neft va gaz, metallurgiya, to‘qimachilik, don mahsulotlari, kimyo va neft kimyosi sanoatlari, qurilish materiallari sanoati tashkilotlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ho‘l va quruq meva, sabzavot eksport va import qiluvchi tashkilotlarga ularning mahsulotlarini, eksportoldi (importoldi) moliyalashtirishni amalga oshirgan holda eksport (import)ga yo‘naltirishda ko‘maklashish;
- tashqi savdo kompaniyalariga eksportoldi (importoldi) moliyalashtirishni amalga oshirgan holda aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlashda ko‘maklashish;
- chuqur marketing tadqiqotlarini olib borish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari mahsulotlarining jahon kon‘yunkturasidagi moyilligini o‘rganish, va shuning asosida eksport jo‘natmalari geografiyasini kengaytirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini sotish uchun istiqbolli tashqi bozorlar topish;
- milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini keng taqdim va targ‘ibot etishni ta‘minlash va ularni sotishni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkaziladigan tender (konkurs) savdolarida, xalqaro savdo-sanoat ko‘rgazma va yarmarkalarida va shu kabi xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan boshqa tadbirlarda ishtirok etish, hamda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyati, korxona va tashkilotlarning ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni maxsus internet nashrlariga tarqatish va joylashtirish;
- chet elda tashkilotlar (savdo uylari, vakolatxonalar va korxonalar)ni tashkil etish va konsignatsiya shartnomalari (kontraktlari) va shartnomalarning o‘zga shakllari asosida tovarlarni ularning manzillariga ortib jo‘natilishini ta‘minlash;
- tarmoq tashkilotlarining bo‘sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida qayta ishlash (tolling) bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun xorijiy kompaniyalarni jalb qilish;
- vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarga, shuningdek tadbirkorlik sub‘ektlariga chet eldan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda ko‘maklashish;
- xalqaro bitimlarning loyihalarini kelishish, chet el davlatlarining tashkilotlari va firmalari bilan ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirish masalalari bo‘yicha xo‘jalik shartnomalarini tuzish, tasdiqlangan nomenklatura bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri kooperatsiyaviy aloqalarni hamda ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorlikning boshqa shakllarini rivojlantirish;
- chet el davlatlariga, tashkilotlarga texnik va iqtisodiy ko‘maklashish, tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida chet el tashkilotlari va firmalari ishtirokida ob‘ektlarni qurish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar va chet el davlatlari bilan hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- eksport va import tuzilmasini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish, eksport va import qilinadigan tovarlarning sifati va texnik darajasiga talablarni oshirish;
- tegishli tovar bozorlarining kon‘yunkturasi va narxlarini o‘rganish va ulardan foydalanish, eksport bazasini yaratish va rivojlantirishda, eksport mahsulotlarining texnik darajasini va raqobatbardoshligini tahlil qilish ishini tashkil qilishda, eksport uchun yangi tovarlarni aniqlashda yordam ko‘rsatish;

➤ reklama chora-tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish, xalqaro yarmarkalar va ko'rgazmalarni tashkil qilish va ularda ishtirok etish, manfaatdor korxonalar va tashkilotlarning axborot va maslahat ta'minoti;

➤ faktoring, xolding va investitsion operatsiyalarni o'tkazish;

➤ Maxaliy va xorijdagi yuridik va jismoniy shaxslarga vositachilik, transport, sug'urta, konsalting, lizing, marketing, moliyalashtirish, distribyuterlik, agentlik va dilerlik xizmatlarini ko'rsatish;

➤ O'zbekiston Respublikasi xududida va undan tashqarida birja faoliyatini amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda xorijiy valyutani sotib olish amaldagi qonunchilikka binoan o'z nomidan va uchinchi shaxslar nomidan jamg'arma birjalarida va birjadan tashqarida qimmatli qog'ozlar bilan muomala yuritish;

➤ xalqaro ko'rgazmalarda, simpoziumlarda, konferentsiyalarda, seminarlarda ishtirok etish;

➤ mijozning xom ashyosi bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

➤ ulgurji savdo;

➤ chakana savdo;

➤ tashqi iqtisodiy faoliyat.

3.3. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishga haqlidir.

3.4. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etiladigan faoliyat turlari qonunchilik bilan belgilangan tartibda tegishli litsenziya olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

4- BO'LIM

JAMIYATNING HUQUQLARI

4.1. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega:

➤ mintaqalalaro hamkorlikni va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

➤ chet eldagi korxonalar va tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish;

➤ O'zbekiston Respublikasi hududida, undan tashqarida filiallar, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar va boshqa yangi korxonalarni tuzish va ta'sis etish;

➤ o'quv yurtlari bilan birgalikda shartnomaviy asosda malakali mutaxassislarni tayyorlashni amalga oshirish;

➤ birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomalar asosida Jamiyat va uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining ishiga boshqa shaxslar investitsiyalarini jalb qilish (bunday holatda foydani taqsimlash alohida shartnomada belgilanadi);

➤ O'zbekiston Respublikasida, hamda undan tashqarida yuridik va jismoniy shaxslar bilan turli xil bitimlarni tuzish va ularni amalga oshirish;

➤ O'zbekiston Respublikasi hududida ko'char va ko'chmas mulklarni, mulkiy huquqlarni, intellektual mulkni sotib olish, ijaraga berish va olish;

➤ uyushmalar, konsortsiumlar, aksiyadorlik jamiyatlari va birlashmalarga a'zo bo'lib kirish;

➤ belgilangan tartibda banklarda har qanday, shu jumladan valyuta hisob varaqalarini ochish, ssuda va bank kreditlarini olish, qonunchilikka muvofiq to'lovlarning har qanday shakllarini amalga oshirish va aktseptlash, o'z mablag'larini vakolatli banklar orqali amaldagi konvertatsiya tartibiga muvofiq konvertatsiya qilish;

➤ ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini, ijtimoiy rivojlanish fondlarini mustaqil rejalashtirish;

➤ O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'z balansidan mulk, qarz, kamomad va boshqa yo'qotishlarni hisobdan chiqarish;

➤ jamiyatning ustav vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish-texnik buyumlarni, xom ashyo, materiallar, transportni sotib olish;

➤ tanlovlarda (tender savdolarida, auktsionlarda, savdolarida) ishtirok etish;

➤ homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirish;

- qonunchilikka muvofiq o'z xodimlari uchun qo'shimcha ta'tillarni, qisqartirilgan ish kuni, ish jadvali va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni belgilash.
- qonunchilik va Jamiyatning Ustavi, ichki xujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

5- BO'LIM

USTAV FONDI

5.1. Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.

5.2. Jamiyatning ustav kapitali Jamiyat mol-mulkining uning kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi va har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 75 000 704 389,0 (yetmish besh milliard yetti yuz to'rt ming uch yuz sakson to'qqiz) dona oddiy (odatdagi) egasi yozilgan aksiyalarga bo'lingan 75 000 704 389,0 (yetmish besh milliard yetti yuz to'rt ming uch yuz sakson to'qqiz) so'mni tashkil qiladi hamda quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi ulushi - 63,87%, 47 901 640 608,0 so'm yoki 47 901 640 608,0 dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat;

- Boshqa yuridik va jismoniy shahslar - 36,13%, 27 099 063 781,0 so'm yoki 27 099 063 781,0 dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

5.3. Jamiyat boshlang'ich ustav fondini shakllantirishning eng ko'p davomiyligi Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim.

5.4. Bitta to'langan oddiy (odatdagi) egasining nomi yozilgan aksiya aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bir ovoz huquqini beradi.

5.5. Aksiyalar haqini to'lash pul mablag'lari va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda baholanadigan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) bilan amalga oshirilishi mumkin.

5.6. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga haq to'lash shakli ularni chiqarish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.

5.7. Jamiyatning mulki Jamiyatning aksiyalarini joylashtirishdan olingan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, olingan daromadlar, shuningdek Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan sotib olingan boshqa mol-mulkidan tashkil topadi.

5.8. Jamiyat 40 164 230 055,0 (qirq milliard bir yuz oltmish to'rt million ikki yuz o'ttiz ming ellik besh) so'm miqdorida 40 164 230 055,0 (qirq milliard bir yuz oltmish to'rt million ikki yuz o'ttiz ming ellik besh) dona nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan qo'shimcha e'lon qilingan egasining nomi yozilgan oddiy aksiya chiqarishga haqli.

6-BO'LIM

USTAV FONDINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

a) Ustav fondini ko'paytirish

6.1. Jamiyatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi Qaror jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinishi mumkin.

6.2. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan Jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilgan holatda aksiyadorlar ustav kapitalidagi ulushiga proporsional ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

6.3. Jamiyat ustav fondini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

6.4. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy (odatdagi) aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddati va shartlari belgilangan bo'lishi lozim.

6.5. Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida qayd etiladi. Bunda e'lon qilingan muayyan toifa va turdagi aksiyalarning miqdori joylashtirilgan ana shu toifa va turlardagi aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

6.6. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilgan holatda aksiyadorlar ustav kapitalidagi ulushiga proportsional ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

6.7. Ustav fondining ko'paytirilishida aksiyalarning haqini to'lash muddati Jamiyat qimmatli qog'ozlari chiqarilishini vakolatlangan davlat organida ro'yxatdan o'tkazish paytidan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim. Jamiyatning qo'shimcha chiqariladigan qog'ozlarini joylashtirishning muayyan muddati ularni joylashtirish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.

6) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish

6.8. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

6.9. Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

6.10. Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

6.11. Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

6.12. Ustav fondini kamaytirish vaqtida Jamiyat tugatilganida nazarda tutiladigan aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish shartlariga rioya etilishi zarur.

6.13. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

7-BO'LIM

JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI

7.1. Jamiyatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'xatdan o'tkazish, joylashtirish va ular bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur ustav bilan belgilanadi.

7.2. Jamiyat aksiyalar, obligatsiyalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga haqlidir.

7.3. Jamiyat umumiy qiymati 75 000 704 389,0 (yetmish besh milliard yetti yuz to'rt ming uch yuz sakson to'qqiz) so'm, har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 75 000 704 389,0 (yetmish besh milliard yetti yuz to'rt ming uch yuz sakson to'qqiz) dona oddiy (odatdagi) egasi yozilgan aksiyalarni chiqarishni amalga oshiradi.

7.4. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxs aksiyaning egasi - Jamiyat aksiyadori deb e'tirof etiladi.

7.5. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq AKSIYAdorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

7.6. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.

7.7. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablagʻlari bilan toʻlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari boʻlgan aksiyadorlar, shuningdek aksiyadorlar umumiy yigʻilishida qarshi ovoz bergan yoki ishtirok etmagan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega boʻladi.

7.8. Jamiyat, uning xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan zararlarni qoplash uchun aksiyalarni chiqarish huquqiga ega emas.

7.9. Jamiyatning aksiyalari oddiy boʻlib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi. aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varagʻidan koʻchirma bilan tasdiqlanadi.

7.10. Jamiyat oʻzi joylashtirgan qimmatli qogʻozlar ayirboshlanishi mumkin boʻlgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qogʻozlar egalariining rozilgisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

8-BOʻLIM

DAROMADNI (FOYDANI), DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH TARTIBI

8.1. Jamiyatning faoliyati natijasida olinadigan foydasi, amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlashdan keyin Jamiyat egaligida qoladi va amaldagi qonunchilik va mazkur ustavga muvofiq aksiyalar boʻyicha dividendlarni toʻlash uchun ishlatilishi mumkin.

8.2. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar oʻrtasida taqsimlanadigan qismidir.

Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) oʻtgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan toʻlanishi mumkin.

Jamiyat aksiyalarning har bir turi boʻyicha eʼlon qilingan dividendlarni toʻlashi shart.

8.3. Dividend aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi qaroriga koʻra pul mablagʻlari yoki boshqa qonuniy toʻlov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qogʻozlari bilan toʻlanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar oʻrtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

8.4. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigʻilishi qaroriga binoan, kuzatuv Kengashining tavsiyasi asosida, Jamiyat har yarim yilda yoki yiliga bir marta qonunchilikda koʻzda tutilgan dividendlar toʻlash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

8.5. Jamiyat:

ustav fondining (ustav kapitalining) hammasi uning taʼsis etilishi chogʻida toʻliq toʻlab boʻlinguniga qadar:

agar dividendlar toʻlanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud boʻlsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni toʻlash natijasida paydo boʻlsa;

agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam boʻlsa, aksiyalar boʻyicha dividendlar toʻlash toʻgʻrisida qaror qabul qilishga hamda dividendlar toʻlashga haqli emas.

Ushbu bandda koʻrsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga toʻlashi shart.

8.6. Yillik dividendlar toʻlash, dividendning miqdori, uni toʻlash shakli va tartibi toʻgʻrisidagi qaror jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud boʻlgan taqdirda, moliyaviy hisobot maʼlumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan koʻp boʻlishi mumkin emas.

Yillik dividendlarni toʻlash sanasi shunday qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran 60 kundan kech boʻlmasligi lozim.

Oraliq dividendlarni toʻlash sanasi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigʻilishi tomonidan, Jamiyat kuzatuv Kengashining tavsiyasi asosida, qabul qilingan qaror bilan belgilab qoʻyiladi va shunday qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran 60 kundan kech boʻlmasligi lozim.

8.7. Dividendlar toʻlash toʻgʻrisidagi qarorda dividendlar toʻlash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar koʻrsatilgan boʻlishi lozim.

Jamiat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

8.8. Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda jamiatning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

8.9. Aksiyador jamiat tomonidan hisoblangan dividendlar va penyalar to'lanishini sud tartibida talab qilishga haqli. Aksiyadorning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda dividendlar jamiat tomonidan to'lanmagan taqdirda, jamiatga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot deb e'lon qilish tartib-taomili qo'llaniladi.

9-BO'LIM

ZAHIRA FONDINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

9.1. Jamiatning zahira fondi ko'rilgan zararlari o'rnini qoplash, Jamiatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

9.2. Zahira fondi ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda tashkil etiladi.

9.3. Jamiat har yili Zahira fondi mazkur ustavning 9.2. bandida ko'rsatilgan miqdoriga yetguncha Zahira fondiga sof foydaning miqdoridan kamida 5 % miqdorida majburiy ajratmalarni amalga oshiradi.

9.4. Agar Zaxira fondi to'liq yoki qisman ishlatilgan taqdirda, majburiy ajratmalar ajratish qaytadan tiklanadi.

10-BO'LIM

AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

10.1. Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- Jamiatning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o'zi haqida depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- Jamiat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiatni boshqarishda ishtirok etish;
- Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish.
- ustavda qo'shimcha aksiyalar chiqarilgan holatda aksiyadorlar ustav kapitalidagi ulushiga proportsional ravishda imtiyozli sotib olish
- ustavda AJning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalariga kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi

a'zoliciga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish;

- aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar ovoz berish jarayonida hamkorlikdagi manfaatlaridan kelib chiqib aksiyadorlik bitimlari yoki kelishuvlarini tuzishlari mumkin.

aksiyadorlar qonun hujjatlariga va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10.2. Jamiyatning har bir oddiy (odatdagi) aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi.

10.3. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

10.4. Aksiyadorlar quyidagilarga majbur:

- mazkur ustavda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda va usullarda aksiyalar haqini to'lash;
- mazkur ustav va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur ustavda ko'zda tutilgan doirada Jamiyat boshqaruvi organlari qarorlariga bo'ysunish;

- jamiyatning faoliyati to'g'risida maxfiy axborotni oshkor qilmaslik.

- Jamiyat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalriga aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi hamda Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olish;

- Minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik.

11-BO'LIM

BOSHQARUV ORGANLARI

11.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardir:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv Kengashi;
- Ijroiya organi.

12- BO'LIM

AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

12.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

12.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

12.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi Jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Odatda, umumiy yig'ilish har yili iyun oyining uchinchi dekadasida o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi, Jamiyatning kollegial ijroiya organi - Boshqaruv Raisi va direktorlari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Jamiyatning yillik hisobotini, yillik biznes-rejasini tasdiqlash, Boshqaruv organi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni strategik rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bo'yicha hisoboti, Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

12.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak, jamiyatning imtiyozli aksiyalari Qonunga muvofiq ovoz berish huquqini olishi hollari bundan mustasno. Bunda Qonunning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalar qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

12.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

➤ Mazkur ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

➤ Jamiyatni qayta tashkil etish;

➤ Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatuv komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

➤ Jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

➤ e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

➤ Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;

➤ o'z aksiyalarini sotib olish;

➤ Jamiyatning yillik hisoboti va biznes-rejasini tasdiqlash, hamda Jamiyat faoliyatining maqsadi va asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, aniq muddatlarni ko'rsatgan holda Jamiyatni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash;

➤ Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini-Boshqaruvni tuzish, Boshqaruv Raisi va direktorlarni konkurs asosida lavozimiga tayinlash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, hamda keyinchalik tasdiqlanishi uchun tegishli takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

➤ Kuzatuv Kengashining Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun xujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishiga doir hisobotlarini eshitish;

➤ Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolariga va ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

➤ Jamiyatning yillik biznes-rejasini, yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlarini hisobvarag'ini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

➤ aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;

➤ aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

➤ qonunchilikda va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda bitimlarni tuzish;

➤ qonunchilikda va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Jamiyatning mol-mulk sotib olishi va sotishi bilan bogliq yirik bitimlarni tuzish;

➤ Jamiyatning boshqaruv organlari faoliyatining tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni tasdiqlash;

➤ Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash, shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ Jamiyatning ustavida, ichki hujjatlarida va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish;

➤ aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- Jamiyatning kundalik xo‘jalik faoliyatiga kiruvchi bitimlarni belgilash;
- jamiyatning korporativ Kodeks tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlaydi;
- jamiyatning “Ichki nazorat to‘g‘risida”, “Dividend siyosati to‘g‘risida” hamda “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlarini tasdiqlaydi;
- mustaqil professional tashkilotlar - maslahatchilarni jalb qilgan holda har yili biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyat rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va tahlil natijalarini muhokama qiladi;
- ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash masalalari muhokama qilinadi;
- kuzatuv kengashiga homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish huquqini, qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma‘lumotlarni oshkor etgan tarzda beradi;
- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar uchun elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o‘z vakolatini vakilga berish yo‘li bilan ovoz berish yoki umumiy yig‘ilishni videokonferents-aloqa tarzida o‘tkazish tartibi belgilanadi (tasdiqlanadi);
- sanoq komissiyasiga amaliy ko‘mak ko‘rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibi belgilanadi (aniqlanadi);
- jamiyat mablag‘lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo‘mitasini ta‘minlash xarajatlarini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo‘mitasi tuzilgan taqdirda) tartibi belgilanadi (tasdiqlanadi);
- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruvi va nazorat organlari ma‘ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo‘lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining davomiyligini belgilaydi;
- Jamiyatning ijroiya organiga to‘lanadigan oylik ish haqi va yil yakunlari bo‘yicha bir yo‘la to‘lanadigan mukofot to‘lovlari hamda (yoki) kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorlarini belgilash.

12.6. Quyidagi:

- Mazkur ustavga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;
- e‘lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish;
- balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish;
- Jamiyat kuzatuv kengashining o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;
- masalalari bo‘yicha qarorlar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rt dan uch qismidan iborat ko‘pchilik (malakali ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.
- Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to‘g‘risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo‘lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo‘lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qolgan masalalar bo'yicha qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

12.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

12.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha quyidagilar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi:

jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar.

12.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhir mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

12.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin korporativ axborot yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

12.11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- Jamiyat aksiyadorlari reestri shakllantiriladigan sana;
- umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

12.12. Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyat yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan Jamiyat auditorlik tashkilotining xulosasi, Jamiyat kuzatuv kengashi, Boshqaruviga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyat ustaviga kiritiladigan o'zgarishlar va qo'shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi hamda Kuzatuv kengashining umumiy yig'ilish kun tartibidagi masala bo'yicha pozitsiyasi yuzasidan ma'lumot kiradi.

12.13. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 90 kun ichida, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashiga bu organing miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

12.14. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

12.15. Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan o'zining nomzodini ko'rsatish to'g'risida taklif kiritilganda nomzodning ismi, basharti nomzod Jamiyat aksiyadori bo'lsa, unga tegishli aksiyalarning soni va turi, shuningdek nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning ismi, ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

12.16. Jamiyat kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu 30 kunlik muddat tugaganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi

shart. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

- aksiyador (aksiyadorlar) 12.13 bandida belgilangan muddatga rioya etmagan bo'lsa;
- aksiyador (aksiyadorlar) 12.13 bandida nazarda tutilgan miqdordagi Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;
- 12.14 - 12.15 - bandlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;
- takliflar qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmasa.

12.17. Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

12.18. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi, yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilishidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risida hisobotni e'lon qilish yo'li bilan aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

Agar aksiyador uzrli sabablarga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

12.19. Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

12.20. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

12.21. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

12.22. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablarin ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

12.23. Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

12.24. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

12.25. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabnomasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

12.26. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida Jamiyat kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

12.27. Jamiyat Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) qonunchilikda nazarda tutilgan miqdordagi Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala Jamiyat talablariga muvofiq bo'lmasa.

12.28. Jamiyat kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

12.29. Jamiyat kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

12.30. Jamiyat kuzatuv kengashi Qonunda belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan bo'lsa yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan bo'lsa, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.

12.31. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'zni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

12.32. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

12.33. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

12.34. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

12.35. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish Qonunda nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

12.36. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

12.37. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz" printsipli bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

12.38. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

- umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

- umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

12.39. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidolari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

13-BO'LIM

JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI

13.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, qonunchilik bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

13.2. Kuzatuv Kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 yil muddatga saylanadigan 5 (besh) nafar a'zodan iborat.

Aksiyadorlik Jamiyatlarining "Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom" talablariga muvofiq, kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'lmagan mustaqil a'zo kiritiladi.

13.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'zni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi.

13.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi «aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish tug'risida»gi Qonunning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish, mazkur Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlarni kiritish;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning aksiyalari emissiya risolasini, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni matnini tasdiqlash;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- jamiyatning Boshqaruv a'zolarini (rais va direktorlardan tashqari) tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish va vaqtinchalik Boshqaruv a'zosi vazifasini bajaruvchi shaxslarni tayinlash;

- ichki audit xizmatining miqdoriy tarkibini belgilash, ichki auditorlarni lavozimiga tayinlash va ularni lavozimidan ozod qilish, har chorak yakunlari bo'yicha ularning hisobotlarini tinglash;

- ichki audit xizmati tomonidan qonunchilik bilan belgilangan tartibga muvofiq tekshirishlarni amalga oshirish yo'nalishlarini belgilash;

- ichki audit xizmatining ta'minoti xarajatlarining yillik smetasini tasdiqlash;

- ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

- Jamiyatning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish;

- Jamiyat auditorlik tashkilotining xizmatlariga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilashga doir tavsiyalar berish;

➤ Jamiyatda transformatsiya jarayonlarining samarali tashkil etish, jamiyatning tashqi qarzarlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish kabi mezonlar asosida baho berish;

➤ aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

➤ Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

➤ Jamiyatning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish;

➤ Jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

➤ Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

➤ Jamiyat Boshqaruv Raisining yillik biznes-rejasining bajarilishi to'g'risida hisobotlarni har yil choragida tinglash;

➤ Jamiyat nomidan Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a'zolarini yollash to'g'risidagi uch yil muddatga mehnat shartnomalarini tuzish va/yoki yollash shartnomalarini imzolash uchun vakolatlangan shaxsni belgilash;

➤ Jamiyatning Boshqaruvi raisi va direktorlari, jamiyat boshqaruvining a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani, agar ular jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega;

➤ Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mol-mulkni olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitimlar tuzish;

➤ Jamiyatning boshqa xo'jalik jamiyatlarida ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni tuzish;

➤ Jamiyatning boshqaruv lavozimlariga xorijiy menejerlar nomzodlarining ishtirok etishiga imkon yaratilgan holda har yili tanlovlar e'lon qilish, tanlovlar reglamentini tasdiqlash, tanlovning ob'ektiv mezonlari va yakunlari bo'yicha yangicha-fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menejerlarni tanlab olish;

➤ umumiy miqdori jamiyat sof aktivlari qiymatining (qaror qabul qilingan sanada) 1 foizidan ortiq bo'lgan miqdorda homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish bo'yicha tegishli qaror qabul qilish;

➤ Jamiyatda korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalarining joriy etilishi yuzasidan nazorat qilish;

➤ Jamiyatning "Axborot siyosati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash;

➤ Jamiyatda korporativ kodeks tavsiyalarini joriy etish monitoringini amalga oshirish uchun jamiyat korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazadi, bu ishni amalga oshirish uchun mustaqil tashkilotni jalb qilishni tashkil etadi;

➤ jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

➤ jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

➤ Kuzatuv kengashi qoshida tegishli masalalar bo'yicha Komitet (ishchi guruh) lar tashkil etish;

➤ amaldagi qonunchilikka muvofiq kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

13.5. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyat ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

13.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega.

13.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta

saylanishi mumkin.

13.8. Jamiyatning ijroiya organining a'zolari, shuningdek unda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar mazkur Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari bo'lishi mumkin emas.

Quyidagi shaxs kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb e'tirof etiladi:

so'nggi uch yil mobaynida jamiyatda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs; jamiyatning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan shaxs;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijozi va yetkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijozi va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning eri (xotini), otasonasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo'lmagan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs.

Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar jamiyat ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyat kuzatuv kengashining soni tarkibi jamiyat ustavi bilan belgilanadi.

Aksiyadorlarining soni besh yuzdan ortiq bo'lgan jamiyat uchun jamiyat kuzatuv kengashining soni tarkibi yetti a'zodan kam bo'lishi, aksiyadorlari soni bir mingdan ortiq bo'lgan jamiyat uchun esa to'qqiz a'zodan kam bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

Davlat vakili lavozimiga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi bo'ladi, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanmaydi (qayta saylanmaydi).

13.9. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga qo'yiladigan talablar AKSIYADORLARNING umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi.

13.10. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

13.11. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

13.12. Jamiyatning kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

13.13. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'z raisini kuzatuv kengashi jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

13.14. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi

majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

13.15. Jamiyatning kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

13.16. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat ijroiya organining, ustavda Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalarining talabiga binoan chaqirilishi mumkin.

13.17. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kворum kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizdan kam bo'lib qolsa, Jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

13.18. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlislari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) har chorakda o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagi masalalar bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish;

Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish;

Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish;

Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish;

Jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;

Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlarni kiritish.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

13.19. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

13.20. Mazkur ustavda kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda kuzatuv kengashining qarorini qabul qilishda Jamiyat kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi nazarda tutiladi.

13.21. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

➤ majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

➤ majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

➤ majlisning kun tartibi;

➤ ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

➤ qabul qilingan qarorlar.

13.22. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

13.23. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi bundan "AKSIYADORLIK jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonunning 90-moddasida belgilangan hollar mustasno.

13.24. Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasini bajarishdan muddatidan oldin ozod etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: aksiyador o'zgarganda,

Kengash a'zosi tomonidan unga yuklangan majburiyatlar lozim darajada bajarilmaganda, Kuzatuv kengashining tegishli arizasi yoki boshqa hujjatiy asoslar mavjud bo'lgan hollarda.

Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini, direktorini yoki boshqaruvi a'zosini jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning, direktorning yoki boshqaruv a'zosining vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruvi a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

13.25. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va jamiyatning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

Agar aksiyalar fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilsa, jamiyat faqat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Jamiyatning ichki audit xizmati, agar bunday xizmat mavjud bo'lsa, o'z faoliyatida audit qo'mitasiga hisobdordir.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

13.26. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat strategiya va investisiyalar, audit, tayinlovlar va haq to'lash, korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalari tashkil etiladi;

13.27. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega.

14-BO'LIM

JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

14.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi Raisi va direktorlari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan konkurs asosida uch yil muddatga tayinlanadi. Jamiyat Boshqaruvi Raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Jamiyat Boshqaruvi Raisi bo'lishi mumkin emas. Jamiyat Boshqaruvi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan uch yil muddatga tayinlanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv Raisi va direktorlarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan konkurs asosida qabul qilinadi. Boshqaruv 5 nafar a'zodan iborat. Boshqaruv Raisi va direktorlar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

14.2. Jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

14.3. Jamiyat Boshqaruvi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil qiladi. Boshqaruv a'zolari Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etishlari shart.

14.4. Jamiyat Boshqaruvining Raisi:

➤ Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarida uning manfaatlarini ifoda etadi;

➤ Jamiyat manfaatlarini ifoda etish uchun ishonchnomalarni beradi;

➤ Qonunchilikda belgilangan tartibda banklarda hisob va boshqa hisobvaraqlarni ochadi;

➤ Vakoloat doirasida, qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat mol-mulkini va pul mablag'larini tasarruf qiladi;

➤ Jamiyat nomidan bitimlar tuzadi;

- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi;
 - Jamiyat nomidan shartnomalar va kontraktlarni, jumladan mehnat shartnomalarini tuzadi;
 - Jamiyat shtatlarini tasdiqlaydi, ularni malakali kadrlar bilan to'liqligini ta'minlaydi;
 - Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;
 - davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;
 - xodimlar bilan mehnat shartnomalari(kontraktlar) tuzadi va ularni tugatish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qiladi;
 - direktorlar va Boshqaruv a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Jamiyat faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ularning vakolatlarini belgilaydi;
 - Jamiyatning barcha mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi shart bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar, ko'rsatmalarni chiqaradi, shuningdek o'zining vakolati doirasiga kiruvchi masalalarga oid yo'riqnomalar va boshqa ichki hujjatlarni tasdiqlaydi;
 - Jamiyat boshqarmalari va tarkibiy bo'linmalari nizomlarini tasdiqlaydi;
 - Jamiyat xodimlariga nisbatan amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;
 - xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, lavozim ish haqlari, ularga ustamalarni, turli qo'shimcha to'lovlarni belgilaydi, Jamiyat xodimlarini rag'batlantiradi, shuningdek, Jamiyat xodimlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida kompensatsiya to'lovlarini o'rnatadi;
 - jamiyatning homiylik va boshqa beg'araz yordamlar uchun yillik xarajatlari miqdori o'tgan yil davomida olingan sof foydaning 3 foizidan oshmagan holda hamda jamiyatning oldingi hisobot yili uchun biznes-rejaning sof foyda ko'rsatkichi bajarilgan taqdirda homiylik haqida ijroiya organi va homiylik oluvchi o'rtasida rasmiylashtirilgan shartnomaga asosan homiylik amalga oshiradi (bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan holler mustasno);
 - Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan buyruqlarni chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
 - Qonun hujjatlari, ushbu Ustav va «Ijroiya organi (Boshqaruv) to'g'risida»gi nizomga muvofiq Boshqaruv raisi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal etadi.
- 14.5. Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatlari amaldagi qonunchilik bilan va ulardan har biri tomonidan Jamiyat bilan tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi. Jamiyat nomidan shartnomani Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolatlangan shaxs imzolaydi.
- 14.6. Jamiyatning Boshqaruv raisi vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.
- 14.7. Jamiyat Boshqaruvi Raisining vakolatlari muddatidan ilgari, AKSIYAdorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yangi Rais tayinlanishi paytigacha bekor qilinganda, Jamiyat Boshqaruvi Raisining vazifalarini Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlangan shaxs amalga oshiradi.
- 14.8. Boshqaruv Jamiyatning ustavi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.
- 14.9. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga quyidagilar kiradi:
- Jamiyatning joriy faoliyatining dasturlarini ishlab chiqish;
 - Maxfiy axborot ro'yxatini va uni olish tartibini aniqlash;
 - Kuzatuv kengashiga va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi balansni va yillik hisobotni taqdim etish;
 - Kuzatuv kengashiga Jamiyatning foydasini taqsimlash va zararlarini qoplash bo'yicha takliflarni taqdim etish;

- Jamiyatning ichki hujjatlarini va ijroiya apparatining tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash uchun takliflar kiritish;
 - Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi tuzilmasini tasdiqlash masalasini ma'qullash va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish;
 - Yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan da'volarni qo'yish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;
 - Jamiyatning mol-mulkini va pul mablag'larini, amaldagi qonunchilik va mazkur Ustav bilan belgilangan vakolatlari doirasida tasarruf qilish;
 - mazkur ustav va amaldagi qonunchilik bilan ijroiya organining vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.
- 14.10. Boshqaruvning majlisida bayonnoma yuritiladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengashi a'zolariga ularning talabiga ko'ra beriladi.
- 14.11. Jamiyat Boshqaruvining majlislarini o'tkazishni Boshqaruv Raisi yoki Boshkaruv Raisi vazifasini bajaruvchi shaxs tashkil qiladi, u Jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda Boshqaruv majlisi bayonnomalarini imzolaydi, Jamiyat boshqaruvi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq ishonchnomasiz Jamiyat nomidan ish yuritadi.
- 14.12. Jamiyat Kuzatuv Kengashining va Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.
- 14.13. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari, Jamiyat Boshqaruvining a'zolari Jamiyatning oldida qonunchilikka va mazkur Jamiyat ustaviga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 14.14. Jamiyatga zarar keltirishga sababchi bo'lgan qarorga ovoz berishda qatnashmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.
- 14.15. Agar amaldagi qonunchilikka muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar hisoblanadi.
- 14.16. Jamiyat yoki Jamiyat joylashtirgan oddiy aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashni da'vo qilib Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqlidir.
- 14.17. Boshqaruv organi a'zolari jamiyatning aksiyadori ham bo'lgan hollarda, boshqaruv organining boshqa a'zolarini saylashda ovoz berish huquqiga ega emas.
- 14.18. Boshqaruv raisi quyidagilarga haqli:
- O'z vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi;
 - Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;
 - Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;
 - Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida lavozimga ega bo'lishi mumkin;
 - Haq olish;
 - Boshqaruv raisi boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 14.19. Boshqaruv raisining majburiyatlari:
- Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutish;
 - O'z majburiyatlarini u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;
 - Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
 - Jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash;
 - Jamiyat Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oldida hisobot berish;
 - Aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborotlarni olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlar hisoblash va to'lash bo'yicha barcha huquqlariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish;

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborotni tegishli tarzda oshkor etilishini nazorat qilish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etilishini ta'minlaydi;

Boshqaruv yig'ilishlarini o'tkazishni tashkil etish;

Jamiyat tarkibiy tuzilmalarining samarali hamkorlik yuritishini ta'minlash;

Jamiyat shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

Davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta'minlash;

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat munosabatlari bilan bog'liq masalalarning hal etilishini ta'minlash;

Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari, ushbu Ustav, "Ijroiya organi (Boshqaruv) to'g'risida"gi Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.

14.20. Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari tegishilicha qonun hujjatlarida, Jamiyat Ustavida hamda ularning har biri Jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolalanadi. Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan AKSIYAdorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

Jamiyatning Boshqaruv raisiga va direktorlarga, Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilanadi.

15-BO'LIM

JAMIYATNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

a) Ichki audit xizmati

15.3. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan taqdirda Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

15.4. Jamiyatning ichki audit xizmati quyidagilarni tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyat Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi:

- Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini;

- Jamiyatning buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini;

- Jamiyatning xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini;

- Jamiyat aktivlarning saqlanishini, ustav kapitalidagi 50 foiz ulush Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalarni, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini.

15.5. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlarida, ushbu Ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat ichki audit xizmati to'g'risida"gi nizomda belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

b) Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)

15.6. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

15.7. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqida noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

d) Jamiyatning korporativ maslahatchisi

15.8. Jamiyatda Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

15.9. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

16-BO'LIM

FILIALLAR, VAKOLATXONALAR, SHU'BA VA TOBE XO'JALIK JAMIYATLARINI TUZISH VA FAOLIYATINI YURITISH TARTIBI

16.1. Jamiyat filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Ular o'zlarini tashkil etgan Jamiyat tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi va shu Jamiyat tasdiqlagan nizomlar asosida ish ko'radi.

16.2. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

16.3. Sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan Jamiyat bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sho'ba xo'jalik jamiyati bilan solidar javobgar bo'ladi. Jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqi faqat sho'ba xo'jalik jamiyati bilan tuzilgan shartnomada yoki sho'ba xo'jalik jamiyatining ustavida nazarda tutilgan taqdirda Jamiyat bunday huquqqa ega deb hisoblanadi.

16.4. Sho'ba xo'jalik jamiyati Jamiyatning aybi bilan bankrot bo'lgan taqdirda Jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyatining majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

16.5. Jamiyat va sho'ba xo'jalik jamiyatining o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

16.6. Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasini boshqarish Jamiyat tomonidan tayinlanadigan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan ishlarni olib borish uchun vakolatlangan rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

16.7. Filiallar va vakolatxonalar to'g'risida ma'lumotlarning tuzilishi va o'zgartirilishi mazkur ustavda aks ettiriladi va belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

16.8. Jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyatga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalarni berish huquqi sho'ba xo'jalik jamiyat bilan tuzilgan shartnomada yoki sho'ba xo'jalik jamiyatning ustavida ko'zda tutilgan taqdirdagina Jamiyat bunday huquqqa ega deb hisoblanadi.

17-BO'LIM

JAMIYATNING HISOBI VA HISOBOTI

17.1. Jamiyat qonunchilik bilan belgilangan tartibda buxgalterlik hisobini yuritishi va moliya hisobotni taqdim etishi shart.

17.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-

saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat Boshqaruvining zimmasida bo'ladi.

17.3. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni matbuotda e'lon qilishdan oldin Jamiyat yillik moliya hisobotini har yilgi tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki aksiyadorlar bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkilotini jalb etishi shart.

17.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 10 kun oldin kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

17.5. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish soliq va moliyaviy organlar, Jamiyatning ichki audit xizmati, boshqa davlat organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida, shuningdek auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlov asosida amalga oshiriladi.

17.6. Jamiyat, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan ikki hafta oldin, moliyaviy hisobotning Xalqaro Standartlari asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobotini, Xalqaro Audit Standartlari asosida o'tkazilgan tashqi audit tekshiruvidan so'ng e'lon qilishi shart.

18-BO'LIM

NIZOLARNING HAL ETILISHI

18.1. Jamiyatning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19-BO'LIM

JAMIYATNING QAYTA TASHKIL ETILISHI

19.1. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

Jamiyatni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49-52 moddalariga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 92-97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

19.2. Yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran Jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, bundan qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish mustasno.

19.3. Jamiyat boshqa yuridik shaxsga qo'shib yuborish yo'li bilan qayta tashkil etilganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qo'shib yuborilgan yuridik shaxsning (Jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

19.4. Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan jamiyatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda qayta tashkil etilgan jamiyatlarning faoliyati to'xtatilgani to'g'risidagi yozuvni kiritish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20-BO'LIM

JAMIYATNI TUGATISH TARTIBI

20.1. Jamiyat quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qaroriga binoan;
- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq sudning qaroriga ko'ra;
- amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra.

Jamiyatni tugatish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53-56 moddalariga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 98-101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

20.2. Jamiyatning tugatilishi paytida, sud qarori bo'yicha tugatish holatidan tashqari, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugatish komissiyasini tuzadi, tugatish tartibini va muddatlarini

belgilaydi, kreditorlar uchun talab qo'yish tartibi va muddatlarini belgilaydi, ushbu muddat tugatilishi to'g'risida xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar tugatish komissiyasiga o'tadi.

20.3. Tugatish komissiyasi yoki Jamiyatni tugatishni amalga oshiruvchi boshqa organ Jamiyatning joylashgan manzili bo'yicha rasmiy matbuot organlarida Jamiyatning tugatilishi, uning kreditorlarining talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida xabar e'lon qiladi. Ushbu e'lon qilish bilan birgalikda tugatish komissiyasi Jamiyatning debitorlik qarzlarini undirish bo'yicha va kreditorlarni Jamiyatning tugatilishi to'g'risida xabardor qilib, ularning e'tirozlarini aniqlash bo'yicha ishlarni amalga oshirishi shart. Tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi va uni tugatish komissiyasini tuzgan organga taqdim etadi.

20.4. Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balans tugatilayotgan jamiyat mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Oraliq tugatish balansini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi. Bu balans aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

20.5. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin tugatilayotgan Jamiyatning qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida quyidagi navbat bo'yicha taqsimlanadi:

➤ birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq qaytarib sotib olinishi lozim bo'lgan aksiyalar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi;

➤ ikkinchi imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, biroq to'lanmagan dividendlarni va Jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan tugatish qiymatini to'lash amalga oshiriladi;

➤ uchinchi navbatda tugatilayotgan Jamiyatning mol-mulkini va pul mablag'larini aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash amalga oshiriladi. Mol-mulkni har bir navbat tartibi bo'yicha taqsimlash avvalgi navbat tartibi bo'yicha mol-mulk to'liq taqsimlab bo'linganidan keyin amalga oshiriladi.

20.6. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

20.7. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ Jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat Jamiyatning qimmatli qog'ozlari chiqarilishlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritadi.

21-BO'LIM

BOSHQA QOIDALAR

21.1. Mazkur ustavga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklida amalga oshirilgan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki belgilangan tartibda jamiyatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organi tomonidan ro'yxatga olinganidagina haqiqiy bo'ladi.

21.2. Agar ushbu ustavning qoidalaridan biri haqiqiy bo'lmay qolsa, bu holat qolgan qoidalarining amal qilishini to'xtatish uchun sabab bo'la olmaydi. Haqiqiy bo'lmagan qoida huquqiy jihatdan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoida bilan almashtiriladi.

21.3. Mazkur ustavda nazarda tutilmagan holatlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.